



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Umarova Sevara Ravshanjon qizi

*Toshkent tibbiyot akademiyasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

SHAXS KAMOLOTGA YETISHIDA HADISLARNING AXAMIYATI

Annotation

Ushbu maqolada shaxs kamolotga yetishida hadislarning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: hadis, shaxs kamoloti, sabr-qanoat, komil inson, ijobiylar, o‘zgarish.

Islom dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’on Karimdan keyingi asosiy manbaa hadis hisoblanadi. Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo’lib, ushbu fazilatlar sirasiga o’zgalarga mehr-oqibat ko’rsatish, saxyilik, ochiq ko’ngillik, ota-onalik, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo’lish, ularga g’amxo’rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug’lash, halollik, poklik, do’stlik, olivjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo’ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o’zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o’z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karimda qayd etilgan ko’rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.

Hadis bu –payg’ambarimiz hayoti, faoliyati va diniy-ahloqiy ko’rsatmalarini o’z ichiga olgan rivoyatlar VIII-IX asrlar Hadis ilmi uchun “oltin davr” sanaladi. Hadislarni ta’lif etishda sahih va nosahih asosiy yo’nalishlari mavjud Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan 6 ta (As-Sahih, As-Sitta) ishonchli to’plam yaratilgan. “Al-Jomi As-Sahih” asari 600000 hadisni o’z ichiga olib, shundan 7275 ta eng sahih va 4000 takrorlanmaydigan hadis kiritilgan. Imom al-Buxoriy hadislarida yaxshi hulq odob qoidalari va ularga



kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ’ib etilgan. Imom at-Termiziyning “Sunan” kitobida keltirilgan hadislarda adolat, e’tiqod, diyonat, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar va ota-onalarga nisbatan hurmat g’oyalari ifoda etilgan.

Movarounnahrda birinchi bo‘lib Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy hadis to‘plamini ta’lif etgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rohavayh al-Marvaziy, Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma’qul an-Nasafiy va boshqalar hadis to‘plamlarini tasnif etishgan. Keyinchalik, milliy-siyosiy ixti-loflar natijasida, payg‘ambar nomidan yolg‘on hadislar to‘qish, fiqh va kalom ilmi sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga xushomadgo‘ylik oqibatida ko‘plab ishonarsiz, to‘qima hadislar yuzaga kelgan.

Davr o‘tishi bilan xadislar tanlanib, muhim deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshladi. 9—10-asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb tanilgan hadisning 6 ta to‘plami vujudga kelgan. Bular: "Sahih Buxoriy", "Sahih Muslim" (qarang [Muslim ibn Hajjoj](#)), "Sahih Termizi", "Sunani Abi Dovud", "Sunani Ibn Moja", "Sunani Nasoiy". ko‘proq e’zozlanadi. Bu 6 ta H. to‘plamini tuzgan muhaddislardan 2 tasi movarounnahrlik, 4 tasi esa xurosonlik bo‘lgan. Hadislar to‘plami sunna deb nom olgan. Hadislarni yig‘uvchi, sharhlovchi, targ‘ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

Diyorimizdan chiqqan buyuk alloma Imom al-Buxoriyning hadislarga bag‘ishlangan to‘rt jilddan iborat «Sahiyh al-Buxoriy» asari (u «Al-Jomi’ as-sahiyh» deb ham yuritiladi) butun Islom olamida haqli ravishda Qur’oni Karimdan keyingi muqaddas manba’ hisoblanadi. VIII-IX asrlar hadis ilmining rivojlanishida “oltin davr” hisoblanadi. Bu davrga kelib, Islom ulamolari tomonidan hadislarning qay darajada to‘g’riliqi, ularning qanday manbalarga tayanilib to‘planganligi jiddiy tadqiq etila boshlandi. Chunki ba’zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo‘la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarni tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi bo‘lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarni yoddan biluvchi haqiqiy, bilimdon, o’tkir mulohazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarning haqiqiy, ishonarli, ya’ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida ular tekshirilib, asl holiga keltirib, yozib yig‘ila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan. Zamonaviy yoshlar qaysi masalalarni o‘zлari uchun muammo deb bilmoxdalar, o‘zlarining qanday xatti-harakatlari orqali jamiyat muammosiga aylanmoqdalar. Har bir o‘smir o‘zi uchun turlicha nuqtai nazar bilan turli masalalarni muammo sifatida qabul qilishi mumkin. Jamiyat uchun esa quyidagi yoshlar bilan bog‘liq holatlar muammo hisoblanmoqda:

- ✓ yoshlar huquqbazarligi va jinoyatchilik
- ✓ turli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish
- ✓ fikrlash va dunyoqarash darajasining pastligi va boshqa shu kabilar.

Yuqoridaagi kabi bir qator muammolarni baratraf etishda eng dolzarb masala yoshlar ta’lim va tarbiyasini yaxshilashdir. Jinoyatchilik, egosentrizm, ma’naviy buzuqlik, yengil-yelpi hayot tarziga o‘rganish insonlardagi mavjud qiyinchiliklarga sabr qilaolmaslikalariga borib taqaladi.

Hadislar esa ayni shu jihatni yosh avlod ongiga singdirishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Hadislarni o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tadbiq qilish yoshlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan qator muammolarni oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.



Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “hadis” va “sunnat” so‘zлari payg‘ambarimizning aytganlari, fe’l-atvorlari, axloqlari, taqrirlari va payg‘ambarlikka qadar bo‘lgan hamda payg‘ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya’ni hayot yo‘llarini anglatadi.

Hadislар Qur’oni karimdagи oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tatbiq etadi. Shunga ko‘ra, ular o‘z ahamiyati jihatidan Qur’oni karimdan keyingi eng muhim qo‘llanmalardir. Sabr toqat inson hayotining asosi hisoblanadi. O‘zida yuzaga kelgan muammolarga nisbatan sabr – toqat va qanoatni namoyon qila olgan inson har tomonlama komillikka erisha oladi. Sabr qanoat insondagi ulug‘ fazilatlaridan biridir. Bu ulug‘ fazilat sohibi: bahillik, hasad, ko‘rolmaslik kabi turli illatlardan holi bo‘ladi. Hadislarda keltirilishida haqiqiy boylik molu-mulkning ko‘pligida emas, balki haqiqiy boylik nafsni to‘qligidadir. Boylik orttirishni baxt deb qabul qilayotgan yoshlar o‘zлari bilmagan holda g‘ayri qonuniy harakatlar ishtirokchisiga aylanib qolmoqdalar. To‘g‘ri hayotda turli holatlar, ko‘ngilsizliklar uchraydiki, bunga sabr bilan munosabat bildirishning iloji yo‘qdek tuyiladi.

Yoshlarga har kimning boshiga sinov tushishi mumkinligi va ularning oxiri roxat ekanligini tushintira olish muhimdir. Bunga misolni quyidagi hadisda ko‘rishimiz mumkin: Alloh taolo musibatlarga sabr qiluvchi insonlar Allohning qanday mukofotiga erishishlari mumkin ekanini bashorat berish uchun Rasulullohga (sollallohu alayhivasallam) bunday xitob qiladi: “Sizlarni biroz xavf-xatar, ochlik bilan, molu jon va mevalar (hosili)ni kamaytirish yo‘li bilan sinagaymiz. (Shunday holatlarda) sabr qiluvchilarga xushxabar bering (ey, Muhammad)! Ularga musibat etganda: “Albatta, biz Allohning mulkimiz va albatta, biz Uning sari qaytuvchilarimiz”, deydilar. Aynan o‘shalarga Parvardigorlari tomonidan salavot (mag‘firat) va rahmat bordir va aynan ular, hidoyat topuvchilardir”.

Hadislarni o‘rganar ekanmiz, ular yosh avlodga hayot maktabida as qotadigan darslarni bera olish imkoniga boy ekanligiga ishonch hosil qilaveramiz. Sabr- g‘am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish; o‘z ixtiyori b-n nafsni tiyish; qanoathi bo‘lish. Islomda to‘g‘ri yo‘ldan adashmasdan borish uchun kishi o‘z mayllarini so‘ndirishi lozimligi ta’kidlanadi. Sabrli bo‘lish musulmonlarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Qur’onning bir necha oyatlarida musulmonlarning sabrli bo‘lishiga da’vat bor. Hadislarda inson uchun sabrdan yaxshiroq va ulug‘roq ne’mat ato etilmagani bayon qilingan. Kishi og‘ir paytda bardosh bilan, ne’mat yetganida shukr va yaxshilik bilan sabr qilishi kerak. Tasavvufda sabr turlicha talqin etiladi. Inson xayoti kurashlardan iborat. Bu dunyoda biz bexisob va turli-tuman dushmanlarga ro`baro` kelamiz. Ushbu kurashlarda kishining zafar quchishi uning sabr-matonatiga bog`liq. Sabr bu turli-tuman pinxonu oshkor dushmanlarni yer bilan yakson etuvchi qudratli quroldir. Alloh taolo uni bandalarini sinashning asosiy jabxasi qildi. Aynan sabr orqali sodiq mo`min kazzob munofiqli dan ajraladi.

Albatta Biz, to sizlarning orangizdagи jixod qiluvchi va sabr qiluvchi zotlarni bilgunimizcha xamda sizlarning xoli-xabarlarining tekshirib, yuzaga chiqargunimizcha, sizlarni imtixon qilurmiz. (Muxammad surasi, 31-oyat). Albatta mol-mulklaringiz va jonlaringiz musibati bilan sinalursizlar va albatta sizlardan ilgari kitob berilganlar va mushriklar tomonidan ko‘p aziyat-malomatlar eshitasizlar. Agar sabr-toqat qilsalaringiz va Alloxdan qo`rqsalaringiz, albatta, bu ishlarning puxtaligidandir. (Oli Imron surasi, 186-oyat). Sabr haqida hazrat Abu Hurayra (r.a.) shunday deganlar: “Kimga sabr qilish ne’mati ato qilingan bo‘lsa, u hech qachon savobdan mahrum qolmaydi”. Chunki Alloh taolo Qur’oni karimda: “Albatta, sabr qiluvchilarga mukofotlari behisob berilur” (Zumar, 10) deb marhamat qilgan.

Ibodatlarni mukammal ado etishda, barcha gunohlardan saqlanishda, Alloh tomonidan imtihon va mashaqqatlarga bardosh berishda iroda va qat’iyat bilan nafsni jilovlay olish



sabrdir. Sabrim ongning yarmi bo'lib, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir. Zotan, "Albatta, Alloh sabrlilar bilan birgadir" deb marhamat qilgan.

Amaliy tadbiqotlardan yana biri shuki, ko'pchilik insonlar musibatlarga sabr qiladilar-u ne'matlarga sabr qilaolmaydilar. Sahobalardan biri shunday degan: "Rasululloh (s.a.v.) bilan birga qiyinchiliklar bilan imtihon qilindik va sabr qildik, so'ng xursandchilik bilan imtihon qilindik, sabr qilaolmadik". Subhanalloh!! Ayrim yoshlar hayotiy qiyinchiliklarga bardosh berishadi, lekin Alloh ularga ne'matlarini yog'dirib qo'ysa, ma'siyatga berilib ketishadi. Yusuf (a.s)ning vazirlik holatidagi imtihoni zindondagidan ko'ra qiyinroqdir. Ogoh bo'ling! Yaxshilik va xursandchilik sinovi yashirin bo'ladi, ko'zga ko'rinxaydi. Siz bu ne'matlarni sabrga muhtoj deb o'yamaysiz. Qiyinchilik va musibatlar esa oshkora va aniq-ravshan bo'ladi. Bu sabrning birinchi turning oxridir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, sabr-toqat, qanoat kabi tuyg'ularni hadislар yordamida shakllantirish jarayonida nafaqat yo'q narasalarga, balki bor ne'matlarning ham sabr-u shukrini qilish ko'nikmalarini shakllantirishimiz zarur. Demak, hadislар mazmunan har bir insonning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Shunday ekan, hadislар komil insonni shakllantirishda muhim manbaa bo'lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Yoshlar muammosini bartaraf etishda va profilaktika ishlarini olib borishda hadislarga tayanish tarbiyada yuzaga kelayotgan turli muammolarni barataraf etishda katta ijobiy natija beradi.

Adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001
2. Al-Buxoriy, Abu Alloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) / tarj., muqad. Va izohlar muallifi Sh. Boboxonov. – T.: O'zbekiston, 1990.
3. Ахмедова М. Т. ЁШЛАРДА ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА УЛАРНИ АҚЛИЙ ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 29-41.
4. Abdivalievna A. N. et al. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ADAPTATION OF STUDENTS ABROAD //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2022. – С. 117-120.
5. Melibayeva R. N. et al. Psychological mechanisms of development students' creative thinking //International journal of scientific & technology research. – 2020. – Т. 9. – №. 03. q
6. Халикулова Х. Ю. История развития толерантного отношения к инвалидам на основе изучения письменных источников восточных мыслителей Средней Азии //Проблемы современной науки и образования. – 2016. – №. 12 (54).
7. Umarova S. Yoshlarda hadislар yordamida sabr toqatlilik hususiyatini shakillantirish. – 2021.
8. Tursunaliyevna A. M., Karimovna N. Y. MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA MADANIY-GIGIYENIK MALAKALARNI TARBIYALASH-BOLALAR ORGANIZMINING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MUHIM VOSITA //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 98-103.



9. Мелибаева Р.Н. Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2012. – №. 12.
10. Нурматов А., Бекмиров Т. Развитие креативности будущего учителя в процессе : дис. – Тошкент, 2021.
11. Nuraliyevich N. A. TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY IDENTIFIKATSIYASINI O ‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 6-9.
12. Нарметова Ю. Методологические и методические проблемы организации психологической службы в медицинских учреждениях. – 2015.
13. Akhmedova M. T. Pedagogical and Psychological Ways to Overcome the Problem of Lesson Discipline in Secondary Schools //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – Т. 9. – №. 3. – С. 421-425.
14. Allayarova S. N. Implementation of Modern Information Communication Technologies (ICT) in Higher Education Sector: International Experience and The Example of Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 386-392.
15. Akhmedova M. et al. Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel. – 2021.